

“DUSHMAN” HIKOYASIDA URUSH DAVRIDA IJTIMOIY HAYOT TASVIRI

DESCRIPTION OF SOCIAL LIFE IN THE WAR IN REMARK'S STORY “THE ENEMY”

Fatxiddinova Iqboloy Faroxiddin qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Fatkiddinova Iqboloy Faroxiddin qizi

Andijan State University, 3rd year student of Philology and Language Teaching (Uzbek)

Annotatsiya: Mazkur maqolada olmon yozuvchisi Erich Maria Remarkning “Dushman” hikoyasi, unda tasvirlangan 2-jahon urush yillari va uning dahshatlari, undan keyingi hayot, fashizmning mudhish qiyofasi, ma’naviy ezlilgan, o’zlarini jamiyatdan begonalashgan deb his qiluvchi kishilar qismati aks etgan.

Annotation: This article tells the story of the German writer Erich Maria Remark "The Enemy", which depicts the years of World War II and its horrors, the afterlife, the horrors of fascism, the fate of those who are spiritually oppressed and alienated from society.

Kalit so`zlar: Remark, 2-jahon urushi, fransuz askarlari, nemis askarlari, dushman, qurok, tinchlik.

Keywords: Remark, World War II, French soldiers, German soldiers, enemy, weapons, peace.

Dunyoni larzaga solgan urush yakunlanganiga ko’p bo’lganiga qaramasdan, uning insoniyat boshiga solgan dahshatlari, azoblari hali unutilgan emas. Dunyo tarixida ikkita jahon urushi bo’lib o’tgan bo’lsa ham hozirda ham yer yuzining turli burchaklarida urushlar, qirg’inbarot olishuvlar davom etmoqda. Eng achinarlisi, urushda qatnashgan odam kelgusida oddiy hayotiga qaytolmasligi!

Dunyo yaralibdiki, inson manfaat uchun, nimagadir erishish uchun kurashib kelgan. Xoh u yer bo’lsin, xoh boylik bo’lsin yoki o’z qudratini namoyish qilish uchun bo’lsin, baribir bundan biror maqsad ko’zlanadi. Ammo, "yuqori doiradagilar" uchun, ularning qabih rejalarini uchun millionlab insonlar halok bo’lishi shartmi?!

Erich Pol Remark olmon yozuvchisi. 1898-yilning 22-iyunida Germaniyada katta oilada dunyoga kelgan. Uning otasi kitob muharriri lavozimida ish yuritgan shu sababli ularning uylari doim kitoblarga boy bo’lgan, tabiiyki bu bo’lajak yozuvchining hayotida muhim rol o’ynaydi. Bolaligidanoq adabiyotga, kitoblarga mehr qo’yib, kitob mutolaalariga berilib ulg’ayadi. Yozuvchining otasi bilan munosabatlari yaxshi holatda bo’lmagan, lekin onasi bilan hammasi boshqacha tarzda edi. Onasiga qattiq mehr qo’yan yozuvchi 19 yoshligida onasi vafot etgan. Bu og’ir judolikka Erich Pol Remark chidolmaydi va shu tufayli o’z ismini Maria (onasining ismi)ga o’zgartiradi, shu bilan ma’lum ma’noda qalbining taskin topishiga erishadi.

Asarlarida urushning dahshatlari, fojialarini, ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi davr hayotining qanday ayanchli oqibatlarga olib kelganligini jonli tarzda tasvirlashga erishgan Erich Maria Remark - birinchi jahon urushi qatnashchisidir. Shuning uchun ham uning urush haqidagi asarlari juda ham murakkab tuzilishga ega.

Va birinchi bor anglab yetdim: men odamlar bilan jang qilayotgan ekanman! O’sim singari jarangdor shiorlari qurok sehriga laqqan tushgan, xotini va bolalari, ota-onasi va kasbkoribor odamlar bilan. Ular sabab bo’lib mening fikrim ravshanlashgan edi. Balki ularning ham men kabi ko’zlar ochilib, yon-atrofga alanglab, «Birodarlar, biz nima qilmoqdamiz?! Buning nima zarurati bor?!» deya bir-birlariga savol berishayotgandir.(1)

Rostan ham buning nima zarurati bor edi va nima uchun bularga qo'l urishdi? Urushda qatnashib, qon to`kib, o`zлari xohlab emas majburlikdan qotillik qilib vijdon azobida qolishiga nima sabab?! Avvalo, ular shu ruhda jangga kirishdiki, yurtimizni bosib olmoqchi bo`lgan yovlar bilan oilamiz uchun, do`sstarimiz uchun, vatanimiz uchun kurashamiz deb ko`plab mashaqqatlarni boshdan o`tkizishdi, tirik qolganlari, albatta.

Voqealar Lyudvig Brayerni urushda ko`rgan kechirganlarini sinfdosh do`stiga aytib berishi tarzida hikoya qilinadi. Brayer omon qolgani uchun mamnun edi, atrof ham ko`ziga o`zi bir mo`jizadek ko`rinardi, ozodalikda, toza kiyimlarda yana o`zini yoshligidagidek his qiladi, buni faqat ular his qila oladi, achchiq haqiqat esa yuksak baxtni his qilayotganining vaqtincha ekani...Biroz muddatga bo`lsa ham askarlarning har biri bu tinchlik, ko`ngillarining oz bo`lsada xotirjamligi, olayotgan yengil nafasi bir zumda yo`q bo`lib ketishi mumkinligini sezib, bilib, qo`rqib turar edilar. Qo`rquv-la baxtni his qilish qanday ekan-a? Ammo buni faqat va faqat o`sha janglarni o`z ko`zi bilan ko`rgan, qo`rquvni va shu bilan birga dushmanga bo`lgan do`stona mehrni his qila olganlar tushunadi, xolos...

...Hamma yerda ozodalik hukmron ediki, buning fusunkor go`zalligini kir-chirga botib yuradigan askargina teran his qila oladi.(2)

Hikoyani so`zlayotgan Brayer nemis askari edi, u dushman fransuz askarlari ham o`zлари kabi oilasi, vatani, yaqinlari uchun jang qilayotgan yosh yigitlar, fabrika ishchilari, qora mehnatkashlar ekanini tushunib yetadi, ammo yana bir haqiqat ham borki, agar bu asirlarni qo`lida qurol bo`lganda edi ular yana dushmanga aylanar edilar. Bu Brayerni dastlab Fransuz asirlarini ko`rgandagi o`ylari edi, keyinroq esa dushman tomon bilan qurol-yaroqlari bo`lsa ham asta-sekin bir-birlariga moslashib "sovg`alar" almasha boshlashadi, boshida qo`rquv bilan, keyinroq hech qanday ogohlantirishsiz shunchaki narsa so`rab qo`shnisini oldiga chiqqan odamlardek.

...Aynan qurol-yarog` urush olovini yoqadi degan fikr mudom ta`qib etardi meni. Dunyoda shu qadar ko`p qurol to`planganki, oxir-oqibat, ular odamlardan ustun kelib, ularni o`zaro dushman qilgandi...(3)

Urush hammaning tinkasini quritgani ko`rinib turibdi, insoniy tuyg`ularning borligi ham. Nafaqat Brayer, uning safdoshlari, boshqa yerdagi askarlar guruhlari ham dushmanlarga nisbatan adovat tuyg`usini butkul yo`qotgan edi, bu fikr fransuz askarlariga ham tegishli. Ular majburiyat yuzasidangina har kuni bir-birlariga yana hujumlar uyishtirishar edi.

...Odamlar qurollar kuchlaridan jazavaga tushib, bir-birini yo`q qilishga telbalarcha tashlanishadi.(4)

Hikoyada asl dushman qurol deb keltirilgan. Lekin bu qurolni (qaysi davlat fuqarosi bo`lsa ham) oddiy odamlar qo`liga tutayotgan kimdir borku! Ikki davlat tepasida turganlar ham oilasi, vatani uchun urush boshlaganmi? Yoki o`z nafslarini qondirish uchunmi? Bularning ostida moddiyat bor edi, albatta. Halok bo`layotgan begunohlar esa chindan ham oilasi, yaqinlari omon qolishi uchun o`zi singari gunohsiz insonlar bilan jang qilayotgan, qalbida achchiq hislarni tuyayotganlar edi...

...Mudhish sirni angladim — qurol jodusi sirini. Qurol odamlarni o`zgartirarkan. Atrofimizda xotirjam, tinchgina o`tirgan bu yuvosh kishilar, bu fabrika ishchilari, qora mehnatkashlar, yuqori sinf o`quvchilari, agar birdan qo`llarida qurol paydo bo`lsa, darhol yana bizning dushmanimizga aylanigan bo`lur edilar. Boshida bizga yov emasdi ular: qurol olganlaridan so`ng dushmaniga aylanishgandi. Xuddi shu narsa meni tafakkur qilishga majbur etdi, biroq mantig`im noto`g`ri bo`lishi mumkinligini tan olardim.(5)

Xulasa qilib aytganda, oddiy insonlar hech qachon urush tarafdori bo`lishmaydi, ular vatani uchun jang qilishadi, xolos. Remark bu hikoyasi orqali dushman aslida dushman emas, ular ham bir buyruq bajaruvchi shaxs ekanligini ham ifodalagan, asl dushman shu urushni nafs yo`lida ochganlar edi. Hikoya so`nggida inson kayfiyatini tushirib yuboradi va ,albatta, shukronalik hissini ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.Remark. Dushman. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/6-biblioteka-ziyouz-com>